

SA'DULLA SIYOYEVNING "AHMAD YASSAVIY" ROMANIDA ONA OBRAZI

F.D.Sapayeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

K.S.Matchanova – 1-kurs o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: Sa'dulla Siyoyev, badiiy asar, roman, tarixiy, insoniyat, ona, "Ahmad Yassaviy", "Yig'lama Onaizor", Makka, Shayx.

Ключевые слова: Саъдулла Сиёев, художественная литература, роман, история, человечество, мать, "Ахмед Яссави", "Йиглама Онаизор", Мекка, шейх.

Key words: Sa'dulla Siyoyev, belles-lettres, novel, history, humanity, mother, "Ahmad Yassaviy", "Yig'lama Onaizor", Makka, Shaykh.

Sa'dulla Siyoyev o'z ijodiy asarlariga o'zligini, shaxsiyatini, xalq "men"ini yashirin tarzda joylagan ijodkorlardan biri. Mustaqillik yillarida 1993-yilda uning "Yassaviyning so'nggi safari" romanining birinchi kitobi, 1997-yilda esa "Haqiqat yo'li" deb nomlangan ikkinchi kitobini nashr ettirdi. 2012-yili asar yaxlit holda "Ahmad Yassaviy" nomi bilan chop etildi.

Yozuvchining maxsus asari buyuk alloma Xo'ja Ahmad Yassaviy hayotiga bag'ishlangan bo'lib asar tom ma'noda tarix va bugunning o'ziga xos yetuk mahsulidir. Adib o'tgan asrda xalqning boshiga kelgan muommolarni, zulumatli kunlarni, turli illatlarni, shuningdek tarixiy shaxslar obrazini, ularning orzu-armonlarini o'z so'zlari bilan aytga oldi. Yozuvchi asarini o'qib, aynan tarixiy haqiqat, yoshlarga ta'sir o'tkazgan illatlarning tajallisini ko'ramiz. Yuqoridagi fikrlarimizni dalillash maqsadida ijodkorning "Ahmad Yassaviy" romani haqida fikr yuritimiz [1:64].

Yozuvchi o'z asarlarida obrazlar xarakterini, ularning psixologizmini, dunyoqarashlarini shu darajada yaxshi yoritib bera olganki, ushbu romanni o'qish jarayonida kitobxon har bir obraz va qahramon haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladi. Ularni tushunadi, o'rganadi, tahlil qilib, taqqoslay oladi [2:91]. Sa'dulla Siyoyev ushbu asarida Ahmad Yassaviy xarakterini tarixiy obraz sifatida juda yaqqol tasvirlab bera olgan. Shunday ekan, Sa'dulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" romanida "Yig'lama onaizor" fasli talqiniga yaqqol ko'zimiz tushadi.

Nafaqat badiiy asar, balki she'riy asarlarda ham Ona tushunchasi mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Ona obrazini ochib berishga yo'naltirilgan har bir chizgi, timsol va obrazda ifoda davomiyligini ta'minlashga intilishlar qabarib ko'rinadi. Tasvir ruhiyatida ham muallif qiyofasi yorqin namoyon bo'ladi. Hayotni obrazlar orqali, xususan asardagi ikkita ona obrazini aks ettirish jihatidan san'at turlari o'rtasida umumiylik, o'xshashlik, mushtaraklik mavjud bo'lsada, obraz yaratish jarayonida san'atning har bir turi uning o'zigagina xos bo'lgan ifoda vositalaridan foydalanadi [3:128].

Adib asarlarini jozibador qilgan, ularga o'ziga xos badiiy tarovat baxsh eta olgan ikki xususiyatni anglaymiz. Ulardan biri, adib badiiy asarni yengil targ'ibot timsoliga aylantirganligi bo'lsa, ikkinchisi, asardan kelib chiqadigan muammolarning hammasi eng murakkab savollarga javob izlash kishini hayajonga soluvchi yuksak badiiy shakllarda amalga oshirilishidir [4:34].

Roman "Jannat onalar oyog'i ostida" hadisi bilan boshlanadi. Bu hadis bilan bejizga boshlanmagan. Shu nuqtayi nazardan adib millatning oliy ideallarini turfa nuqtalarda namoyon qilishga urinadi. O'z navbatida milliy ruh, xarakter mukammalligi mezon o'lchovi darajasini ifodalaydi.

Roman tarixning insoniyat turmush tarziga, jumladan, millat psixologiyasiga ta'sirini aks ettiradi. Yangicha aspektda yoritilgan asarda katta axloqiy-falsafiy muammoning mohiyati badiiy niyatni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, ona obrazining xarakter mantig'i, qahramon ruhiyatini yoritish vositasida adib teran ijtimoiy umumlashmalar yaratadi. Mazkur xususiyatlar – ichki nutq, xatti-harakat, vaziyatlar, badiiy shtrixlar, hayotiy tafsilotlar birligi tarzida epik makon kategoriyasidan oziqlanadi.

Voqealar shunday boshlanadi: "Hijriy 541 yil. Rabbiul-avvalning o'n uchinchisi. Payshanba. YOZ qarib, sunbula kirgan. Yarim tun. Shahriston shirin uyquda. Biroq... mana, xudoga shukur, bir yostiqqa bosh qo'yanlariga yigirma yil bo'libdi. Ana shu yigirma yil badalida Shayx unga onalik xizmatidan bo'lak vazifani ravo ko'rmadi. Umri masjid xonaqosida, xalifalar, muridlar qurshovida o'tadi. Ruqiya bibi ikki qizu bir o'g'ilni bag'riga bosib, masjid yonidagi uch xonali torgina hovlida el qatori o'rtahol yashab keladi. Tomga chiqdi. Qiblaga qarab turib, munojot qildi: "Xalloqi olam inoyat aylab, yo'limizni bersa, bugun Makkai mukarrama sari otlang'aymiz. Nasib etsa, hajar-al-asvadni ko'zga surtib, yana ona yurtga qaytarmiz. Mabodo bir siqim tuprog'imiz begona ellarga buyurgan bo'lsa, na chora, yaratganning irodasi... Qaytib sizni ko'rolmasak, rizo bo'ling, ota yurt osmoni!" [5:14]. Ona obrazidagi mehrlanuvchi rishtalari milliy mentalitetimizning o'zagini tashkil etishini hisobga olsak, Ruqiya bibining xatti-harakatlari mohiyati oydinlashadi. Romanda ona qalbidagi yashirin samimiy tuyg'ular silsilasi ijtimoiy me'yorlarni tan olmaydi. To'g'rirog'i, Ruqiya bibi jamiyatning baxtli yoki baxtsiz a'zosi ekanligi ta'kidlanmayapti, balki shaxs quvonch-iztiroblari, his-tuyg'ulari ikkinchi planga chiqib qolganligi illat sifatida baholanyapti.

Ahmad Yassaviy romanida Shayx Makkaga ketishdan oldin xalqi bilan nafaqat osmon jismlari, balki yer kurrasi bilan xayrlashgan ya'ni o'zidan rizo bo'lishlarini aytgan misralarini o'qigan insoniyat ko'zida yosh qalqadi. G'ariblarning ko'z yoshiga yulduzlarni o'xshatadi. Falakni – kechasi musofir yo'lovchilarning yo'lini yorutguchiga qiyoslaydi. Quyoshni – yer yuzida bog'lar, ekinlarni o'stirib, rizq hosil qiluvchi deya ta'riflaydi. Ichgan suvi uchun ariqlarga, shirin – shakar mevalardan totingan daraxtlarga rozi bo'lishini bildiradi. Asarni o'qigan kitobxonda shayxning Ruqiya bibiga bo'lgan hurmat-ehtiromi cheksizligi chuqur aks etadi. O'z ayoliga bo'lgan hurmatining qanchalik ulug'vor ekanligi yaqqol manoyon bo'lyapti.

Quyidagi misralarni ko'rib nafaqat ona iltijosi, balki qanday yo'llar bilan Makkaga borgan savobligini Shayxning qilgan nasihatlar orqali kitobxon qalbinin tub-tubigacha yetib boradi: "Yeti-sakkiz yoshlardagi, ola to'n kiygan oriq bolakay ikkilanib, olomon orasidan chiqdi. Ayolning o'ktam tovushi eshitildi: Pirim, ana shu norasidaning otasi, yolg'iz o'g'lim, o'laman sattor Makkaga ketaman, deb turibdi. Xudoning zorini qildim, sen bo'lmasang, biz qanday kun ko'ramiz, dedim. Cholimni tuproqqa topshirganman, ishonganimiz ham, suyanganimiz ham shu yolg'iz o'g'il. Orqasida atak-chechak besh bolasi bor. Jon pirim, sadag'angiz ketay, o'g'ilginamga nasihat qiling, bola-chaqasining yoniga qaytsin. Bizni tashlab uydin bosh olib chiqib ketganiga bir yil bo'ldi. Bir yildin beri darvishlarning orasida yuribdi. Iloyo, oxiratingiz obod bo'lsin, pirim, bolaginamni qoldirib bering... – Yig'lamang, onaizor! Inshoollo, o'g'lingiz yoningizda qolg'ay. Aning ismi..." [6:22].

Shayx xalqqa shunday nasihatlar beradiki, haj yo'lida bir rivoyat ham aytib beradi. Makkaga ketishdan oldin volidangiz rizoligini olishi kerakligi va o'sha rivoyatdagi yo'lovchi ellik marotaba hajga borganligi, boshyalang, oyoqyalang, och-nahor dashtu biyobon kezzanini aytib beradi. Ammo hajga borganim, ibodatim qabul bo'lmadi, deydi. Men volidamni norizo qilgan edim deydi. Fursat

borida onang huzuriga shoshil, uning oyoqlariga yiqil deydi. Zeroki, jannat onalar oyogʻi ostidadir.

Ona obrazini ochib berishga yoʻnaltirilgan har bir chizgi, timsol va obrazda ifoda davomiyligini taʼminlashga intilish qabarib koʻrinadi. Har bir inson kamolotida otaning oʻrni katta [7:45]. Biroq u oilani moddiy taʼminlash, kamkoʻstini toʻldirish, xonadon farovonligi, mustahkamligi uchun masʼul. U koʻcha odami. Ona esa ayollik nazokati, latofati, mushtiparligi va mehr-muhabbati timsoli. Unda

ezguliklar, sadoqat, sogʻinch va ilhom mujassam. Albatta, har bir davrning oʻz yuki, masʼuliyati, javobgarligi boʻladi [8:65].

Saʼdulla Siyoyev asarlarining xalqqa manzur boʻlgani sababi bu asarlar xalqchil ruhda yozilgan, xalqdan olingan va xalqqa berilgan. Saʼdulla Siyoyev oʻzining asarlari bilan davr muammolarini yechishga, tarixda yashab oʻtgan bobolarimiz bilan faxrlanishga, ularning munosib vorislari, izdoshlari boʻlishga undaydi.

Adabiyotlar

1. Ibrohim Haqqul. Ahmad Yasaviy. – Toshkent: 2001.
2. Omanova M. Saʼdulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romani haqida // Oʻzbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 2021.
3. Xoʻja Ahmad Yassaviy Devoni hikmat. (Yangi topilgan namunalar). – Toshkent: 2005.
4. Muqumov Z. Qilich va qalam sohiblari (Davlat arboblari haqida tarixiy lavhalar). Risola. – Samarqand, SamDU nashri, 2013.
5. Saʼdulla Siyoyev. Ahmad Yassaviy romani. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2012.
6. Saʼdulla Siyoyev. Ahmad Yassaviy romani. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2012.
7. Xayrullayev M.M. Maʼnaviyat yulduzlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
8. Nasirov A. Badiiylik va tarixiy haqiqat. Monografiya. – Turkiya: Istanbul. Kesit, 2019.

REZYUME. Maqolada oʻzbek adabiyotida munosib ijodiy izlanishlar olib borgan, oʻziga xos maktab yaratgan adib Saʼdulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romanida “Yigʻlama onaizor” faslining oʻziga xos xususiyatlari haqida soʻz yuritiladi. Saʼdulla Siyoyev ijodida tarixiylik, insoniylik, milliylik, tuygʻu va ruhiyat talqini va ijtimoiy voqelik, oʻbrazlararo uygʻunlikdagi yozuvchi estetik tamoyillarini ochib bergani tahlillanadi.

РЕЗЮМЕ. В статье говорится об особенностях сезона “Плачущая мать” в романе “Ахмед Ясави” Садуллы Сиёева, писателя, проводшего достойные творческие исследования в узбекской литературе и создавшего собственную школу. Анализируется, что в творчестве Садуллы Сиёева раскрыты эстетические принципы историчности, гуманности, национализма, интерпретации чувств и духовности, социальной реальности, гармонии между образами.

SUMMARY. The article talks about the special features of the “Weeping Mother” season in the novel “Ahmed Yassavi” by the writer Saʼdulla Siyoyev, who conducted worthy creative researches in Uzbek literature and created his own school. It is analyzed that in Saʼdulla Siyoyev’s work, he reveals the aesthetic principles of the writer in harmony between historicity, humanity, nationality, interpretation of feelings and spirituality, and social events, images.

ATAQLÍ DÁSTANSHÍ, BAXSHÍ FAZÍL YULDASH ULÍ HÁM OL ATQARĖAN «ALPOMISH» DÁSTANÍ HAQQÍDA

A.B.Turdimuratova – *tayaniş doktorant*

Özbekstan Respublikası İlimler Akademiyası Özbek tili, ádebiyatı hám folklorı institutı

Tayanch soʻzlar: doston, hikoyachilar maktabi, epos, poetik, anʼana, nashr, qahramonlik dostoni, janr, usul, baxshi, qoʻlyozma.

Ключевые слова: дастан, школа сказителей, эпос, поэтический, традиция, публикация, героический эпос, жанр, способ, бахши, рукопись.

Key words: dastan, school of storytellers, epic, poetic, tradition, publication, heroic epic, genre, method, bakhshi, manuscript.

Folklor iliminde baqsı hám jırawlardın atqarıw usılları, ideyalıq baǵdarı, repertuarına qaray qaysı dástanshılıq mekteplerine tiyisli ekenlikleri ajralıp turadı. Oytkeni dástanlar xalıq awızeki dóretpesi, jámaátlik hám jeke dóretiwshilik nátiyesi bolıp, ásirler dawamında áwladtan áwladqa belgili bir epikalıq dástúrler tiykarında qalıplesip, barlıq baqsı-jırawlar ushın belgili bir qalıp payda boladı. Ozbek folkloristika ilimi awızeki dástan dóretiwshi hám atqarıwshı dástanshılardı baxshı dep, geyde ataqlı baxshılardıń ismine húrmet júzesinde shayır dep qosıp ataydı.

Xalıq baxshılarınıń ózine tán poetikalıq jollar menen bir birinen ajralıp turıwın professor H.Zarifov dástanshılıq mektepleri dep ataydı [1:8-9]. Ozbek folkloristika ilimi dástanshılıq mekteplerin tómendegishe: Bulıńır, Qorǵan, Shahrısabz, Qamay, Sherabad, Qubla Tájikistan, Xorezm kibi dástanshılıq mekteplerine ajratıp qaraydı. Ozbek xalıq dástanshılıǵında qaharmanlıq dástanlardı atqarıwshı baxshıları menen belgili, Bulıńır dástanshılıq mektebiniń ornı ayırıqsha. Alımlardıń pikirinshe bul mektep wákıllerine XVIII ásirlerdiń aqırında jasap ótken Amin baxshı, Chini shayır, Sultanmurat shayır, Yuldashbúlbúl, Tawbuzar shayır, Qurbanbek shayır, Suyar, Rahimbúlbúl, Joʻra, Fazıl shayır, Yorlaqab kibi belgili baxshı-shayırlar kiredi. Olar Bulıńır, Jamboy, Payarıq, Gallaaral, Zamin, Jizzax átiraplarında dástanshılıq penen shuǵıllanadı. Bulıńır dástanshılıq mektebi wákılleri Fergána alabındaǵı baxshılardıń óz tásirin tiygizgeni menen birge Yangıqorǵan rayonındaǵı Kólbuqon dástanshıları olardı óz ustazları dep sanagan. Olardıń súyip atqaratuǵın «Alpomish» dástanını atqarıwdıǵı sheberligi sonshellı hátteki Qorǵan dástanshılıq mektebiniń wákılleri Jumanbúlbúl hám Jassaq hám basqa baxshılarda olardıń atqarıwında tıńlap ketetuǵın bolǵan.

Sunday-aq Bulıńır dástanshılıq mektebiniń wákılleriniń poetikalıq jolı, qaharmanlıq dástanlardın

ápiwayı hám joqarı, arxaik ekenligin alımlar ayırıqsha atap ótedi [2:48-51].

Bulıńır dástanshılıq mektebiniń biytákirar talantlı baxshısı Fazıl Yuldash ulı (1872-1955) bolıp, onnan «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Malika ayyor», «Mashriq», «Zulfizar», «Balogardon», «Avaxxonning olimga hukm etilishi», «Intizor», «Nuralı», «Jahongir», «Murodxon», «Rustam», «Shirin bilan Shakar», «Farhod va Shirin», «Laylı va Majnun», «Bahrom va Gulandom», «Raʼno bilan Suxangul», «Zevaxxon» sıyaqlı qırıqqa jaqın dástanlar hám termeler jazıp alıadı. Fazıl Yuldash ulı repertuarınıń oǵada keńligi menen birge ol júdá kórkem atqarıwı menen basqalardan ajralıp turǵan. Onıń repertuarında ózbek xalıq dástanlarınıń hámme túrlerin tabıwǵa boladı. Ol ashıqlıq dástanları, qaharmanlıq dástanlar menen birge termelerdi atqarıwı menen birge ol ózi jasaǵan zamanǵa say zamanagóy dástanlardı, qosıqlardı dóretip atqaradı.

Fazıl Yuldash ulı 1872-jılı (burın Jizzax wálayatı Baxmal rayonı) házirgi Samarqand wálayatı Bulıńır rayonı, Búdana awılsovetine qarashlı Layqa awılında tuwıladı. Ákesi Yuldash ózbektiń qırıq urıwınan bolıp, yarım diyqanshılıq, yarım sharwashılıq penen shuǵıllangan, kambaǵal diyqan boladı. Ákesinen bes jasında jetim qalǵan Fazıl Yuldash ulı túrli qıynshılıqlardı dus keledi, baylardın esiginde kúnlikshilik, shopanlıq etip, kesesi aǵarmaydı. Oziniń basınan keshken qayǵılı kúnler menen bir qatarda xalıqtın da kórgen qıynshılıqların Fazıl shayır «Kúnlerim» [3:32-33] avtobiografiyalıq poemasında táriyplep ótedi. Jaslayınan shopanlar arasında júrip, dombıra shertiwdi úyrenip alǵan Fazıl Yuldash ulı 20 jaslarında awıllası hám ustazı Yuldash shayırdı shákirti bolıp túsedı. Yuldash shayır Bulıńır dástanshılıq mektebiniń ataqlı baxshısı Yuldashbúlbúldıń shákirti bolıp, batırlıq dástanların súyip jırlaytuǵın bolǵan. Fazıl Yuldash ulı óz ustazınan